ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026/ № 1. 1-2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Yo'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 12.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 12.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

PARDAYEV AZAMAT BAXRONOVICH
So‘zning lingvistik tabiati xususida 7

HAMIDOVA MUHAYYOXON OBIDOVNA
Shukur Xolmirzayev nasrida milliy mentalitetning badiiy talqini 11

ABDURAXMONOV XUDOYNAZAR ABDIRAYIMOVICH
Mavhum otlarning kognitiv-semantik va diskursiv xususiyatlari:
zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida tahlil 16

ASADOV TO‘LQIN HAMROYEVICH
Predmet-belgi ma’noli ayrim morfologik oraliq so‘zlarning qiyosiy-tarixiy tavsifi 22

G‘AYBULLAYEVA DILDORA FAYZULLA QIZI
O‘zbek tilidagi insonning fizik xususiyatlarini
ifodalovchi frazeonimlarning semantik-stilistik tahlili 26

NASHIROVA SHAXNOZA BURIYEVNA
Ikki tilli lug‘atlar: nazariy asoslar va tarixiy yondashuv 29

NORKUZIYEVA DILDORA
Til tizimiga kiritilgan zoonim va zoomorfizmlarning
qiyosiy tipologik tadqiqotlardagi tahlili 33

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Epitet – badiiy matnni obrazli ifodalovchi vosita 38

AVEZOVA GULNOZA KAMILOVNA
Komil Avazning nasriy asarlarida dialektizmlarning qo‘llanilishi
(«Sozanda» romani misolida) 41

AMONOVA ZAMIRA
Nemis va o‘zbek tillarida destruksiyani ifodalovchi
fe’llarning metaforik qo‘llanilishi 44

NE’MATOVA O‘G‘ILOY AKRAM QIZI
«Maxzan ul-asror” dostonining badiiy-tasviriy
vositalari va uslubiy xususiyatlari 53

TUROBOVA MATLUBA RAXMATULLAYEVNA
Sun’iy intellekt tizimlarida o‘zbek tili leksikografik bazasini
shakllantirishning innovatsion usullari 56

KO‘CHIYEVA SHABNAM ISOMIDDIN QIZI
Tilshunoslikda disleksiya va disgrafiyaning
neyrolingvistik va psixolingvistik tadqiqi masalalari 60

OZADOVA MA’MURA ERGASHEVNA
Xorazm xalq qo‘shiqlari tilidagi manglay leksemasining lingvokulturologik va
lingvopoetik xususiyatlariga doir 63

МУНДАРИЖА

ALLAQULOVA SADOQAT AXMAT QIZI
O‘zbek tilining umumiy izohli lug‘atlarida etnoleksemalar berilishining qiyosiy tahlili 65

O‘RAZOV ALISHER DONIYOROVICH
O‘zbek tilida leksemaning semantik tabiati 68

JUMAYEVA KUMUSH TURSUNALIYEVNA
O‘zbek tili o‘zlashma qatlam somatik lesemalarida leksik tipologiya 72

MURODQULOVA IRODA SHAROFIDDINOVNA
Semurg‘ obrazining lingvomadaniy talqini (o‘zbek xalq dostonlari misolida) 76

ADABIYOTSHUNOSLIK

АСРОРОВ АКБАР, БОЛТАЕВ МАРДОН
Шоҳона сатрлар соҳиби – Султон Убайдий 80

SAMATOV SHOMAT, XO‘JANOVA OZODA
Buyuk shoir xotirasiga munosib haykal 85

ABDULLAYEV RAMAZON
Composing tatabbu‘ poetry in the time of Mu‘izzī and after him 88

JEPBAROWA SAÝAT KURBANMIRATOWNA,
EGENMURADOV ARZUV ANNAMIRATOVICH
Magtymguly Pyragynyň döredijilik äleminde möwlana Lutfynyň edebi poetik täsiri 93

ABDUXALIQOVA HILOLA G‘ULOM QIZI
XVIII–XIX asrlar o‘zbek dostonlarida tasavvufiy talqinlar 97

PAYG‘AMOVA SHIRIN JAKBARALI QIZI
Analitik folklorizmlarning poetik xususiyatlari 100

JAVLIYEV POYONBEK SHAVKAT O‘G‘LI
Usmon Azim nasrida lirik ohang 103

FERUZA RASULOVNA RASHIDOVA
The depiction of internal monologue as a form of artistic psychologism
in the novels of the Bronte sisters 106

TA’LIM

MASHARIPOVA NARGIZA OTAXONOVNA,
BAXRAMOVA MALIKA MUZAFFAROVNA
Sun’iy intellektli o‘yin yordamida inglizcha so‘z boyligini oshirish
(o‘zbek madaniyati asosida) 109

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

XVIII–XIX ASRLAR O'ZBEK DOSTONLARIDA TASAVVUFIY TALQINLAR

Abduxaliqova Hilola G'ulom qizi,
O'zbekiston milliy universiteti
O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi tayanch doktoranti

XVIII–XIX asrlar o'zbek adabiyoti, ayniqsa, dostonchilik an'anasi, tasavvufiy g'oyalar bilan uzviy bog'liq holda rivojlandi. Bu davrda yaratilgan xalq va yozma dostonlarda ishq, komillik, sabr, nafsni yengish, pir-murshidga sadoqat kabi tasavvufiy tushunchalar yetakchi mavqega ega bo'ldi. Markaziy Osiyoda keng tarqalgan naqshbandiya, yassaviya va qodiriya tariqatlarining ta'siri badiiy tafakkurda chuqur aks etdi. Natijada dostonlar nafaqat epik voqeabandlik namunasi, balki ruhiy-ma'rifiy maktab vazifasini ham bajardi.

XVIII–XIX asrlar Movarounnahr hududida siyosiy parokandalik, xonliklar o'rtasidagi kurashlar bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga, ma'naviy hayotda tasavvuf ta'limoti xalq orasida keng yoyilgan edi. Bahouddin Naqshband asos solgan naqshbandiylik tariqati "Dil ba yoru, dast ba kor" shiori orqali dunyoviy hayot bilan ruhiy poklanishni uyg'unlashtirish g'oyasini ilgari surdi. Ahmad Yassaviy hikmatlari esa turkiy xalqlar ongida tasavvufiy tafakkurning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi[1].

Mazkur ruhiy muhit dostonlarda ramziy obrazlar, ilohiy ishq timsollari, komil inson idealining tasviri orqali ifodalanadi.

XVIII–XIX asrlar dostonlarida ishq mavzusi yetakchi o'rinda turadi. Biroq bu ishq ko'pincha ikki qatlamli – zohiriy (insoniy muhabbat) va botiniy (ilohiy muhabbat) ma'noda talqin qilinadi. Masalan, Tabibiyning "Vomiq va Azro", Huvaydoning "Rohati dil", "Layli va Majnun" kabi syujetlarda oshiqning hijron azobi tasavvufdagi "fano" maqomiga yetishish yo'lidagi ruhiy iztirobni anglatadi. Majnunning sahroga ketishi nafsdan kechish, dunyodan uzilish ramzi sifatida talqin etiladi.

Bu jihat ayniqsa Boborahim Mashrab ijodida yaqqol namoyon bo'ladi. Mashrab she'riyati va unga nisbat berilgan rivoyatlarda ishq ilohiy haqiqatni anglash vositasi sifatida talqin qilinadi. Uning qahramonlari ko'pincha jamiyat qoidalaridan yuqori turuvchi, Haq ishqida yonuvchi shaxslar sifatida tasvirlanadi.

Tasavvufiy talqinlarda dostonlardagi ko'plab obrazlar ramziy ma'no kasb etadi:

a) safar – solikning suluk yo'lidagi ruhiy sayri;

b) hijron – Haqdan uzoqlik azobi;

d) yor – ilohiy Haq timsoli;

e) zindon yoki sahro – dunyoviy sinov va riyozat makoni[2].

Bu ramzlar orqali muallif voqeani ikki qatlamda bayon qiladi: tashqi sarguzasht va ichki ma'naviy kamolot jarayoni[3].

"Vomiq va Azro" dostonining o'zbek adabiyotidagi o'rni va mazmuni, uning tasavvufiy, axloqiy va insoniy g'oyalarini tahlil qilish holati bilan biz bu maqolada shoir Ahmad Tabibiy (1869–1911) ijodini XVIII–XIX asrlar adabiy an'analariga bog'lab o'rganamiz. Doston Sharq adabiyotidagi shu mavzu evolyutsiyasini davom ettirgan yirik she'riy asar bo'lib, u ilm-ma'rifat, sevgi, komillik kabi masalalarni ochib beradi va xalqni ma'naviy yetuklikka yetaklovchi omil sifatida xizmat qiladi.

Tabibiy "Vomiq va Azro"ni 1910–1911-yillarda yaratgan deb qabul qilinadi. Doston 81 bob, 8100 bayt va 16200 misradan iborat bo'lib, u sharq an'anaviy hikoya tariqasida yozma adabiyot shakliga o'tkazilgan. Asar syujeti qadimgi xalq afsonalaridan – sevgi va sinov, adolat va vatanparvarlik g'oyalaridan iborat bo'lib, u "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin", "Yusuf va Zulayxo" singari dostonlarning ideallari bilan uzviy bog'liqdir.

Shuningdek, manbalarga ko'ra, Tabibiy doston muqaddimasida o'nlab avvalgi versiyalar – fors tilidagi "Vomiq va Azro" va uning tarjimalari mavjudligini eslatadi.

Doston markazida ikki qahramon – Vomiq va Azro sevgi va sadoqat timsoli sifatida tasvirlanadi. Vomiq Podshoh Nosir farzandi sifatida tug'ilib, ta'lim oladi va yuksak axloqiy fazilatlarni egallaydi. Azroning surati yoki tashrifi Vomiq qalbini silkita boshlaydi va uni o'z yo'liga yetaklaydi[4].

[1] Karimov N. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – B. 185.
[2] Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent, 2005. – B. 78.
[3] Haqqul I. Tasavvuf va she'riyat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010. – B. 50.
[4] Rahmonova Sh. Ahmad Tabibiy hayoti va ijodi: Filol. fan. dok. diss. – Toshkent, 2023. – B. 57.

Quyidagi iqtiboslardan ko'rinib turibdiki, asarda ishq va sevgi – nafaqat hissiy holat, balki insonning ruhiy poklanishi va ma'naviy kamolotga erishish vositasi sifatida tasvirlangan:

Shoh Vomiq bir kecha Azroni tushida ko'rib
Tozadin oshiftalig'da yagona bo'lg'oni...

Bu satrda uyqudagi tasavvur orqali ilohiy ishqni anglashga bo'lgan intilish seziladi.

Doston asosan insonning ruhiy iztiroblari, sabrlilik, oshiqlik sayohati, hajr va visol g'oyalari atrofida qurilgan. Xususan, ishqning inson qalbini poklab, uni Haq yo'liga yetaklash fikri ko'p qavatli tasavvufiy ma'noga ega. Bu jihatlar Tabibiyning dostonida juda muhimdir: sevgi faqat dunyoviy emas, balki umumiy ma'naviyatga yo'naltirilgan idealga erishish yo'lidagi vosita ekanligi ko'rsatadi[1].

Doston she'riy uslubda yozilgan bo'lib, unda baytlar tuzilishi, obrazlarning falsafiy-psixologik tahlili va ritmik qurilishi e'tiborga sazovor. Tabibiy o'z uslubida Navoiy va boshqa klassik dostonchilik an'analarini davom ettiradi, biroq she'riy tilda yangicha obraz va ritmlarni yaratadi.

Masalan, Vomiq hissiyotlari quyidagicha ifodalanadi:

Bo'yicha ishqi jahongir,
Erur Azro ayoqi uzra zanjir...[2]

Bu misrada ishqning zaruriy sabr, tanazzul va ichki kurash bilan bog'liqligi tasvirlangan.

"Vomiq va Azro" faqat ishq mavzusiga bag'ishlangan asar emas, balki jamiyat hayotiga oid masalalarni ham o'zaro bog'lab beradi. Unda sadoqat, vatanparvarlik, axloq-odob, halollik, adolatli hukmronlik kabi fazilatlar yuqori qadrlangan. Bu jihat Tabibiyning ma'rifatparvar qarashlaridan kelib chiqadi.

Tabibiyning "Vomiq va Azro" dostoni o'zbek adabiyotiga kirib kelgan noyob she'riy asarlardan biridir. U nafaqat insoniy sevgi va sadoqatni, balki yuqori axloqiy qadriyatlarni ham tasvirlab beradi. Syujetning murakkabligi, tasavvufiy motivlar, badiiy-poetik uslub va axloqiy g'oyalar dostonni klassik adabiyotlar qatoriga qo'yadi. Bu doston orqali Tabibiy o'z zamonasining ma'naviy-madaniy muhitini aks ettirib, har bir o'quvchini o'z qalbi va ruhiyatiga murojaat qilishga chorlaydi[3].

XVIII–XIX asrlar o'zbek mumtoz adabiyoti tasavvufiy-estetik tafakkurning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu davrda ijod qilgan Huvaydo o'zining "Rohati dil" dostoni bilan nafaqat an'anaviy irfoniy g'oyalarni davom ettirdi, balki ularni individual ruhiy tajriba asosida qayta talqin qildi.

Mumtoz adabiyot tarixida tasavvufiy dostonlar ko'p uchraydi, xususan, Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" asari axloqiy-irfoniy yo'nalishda yetuk namunadir. Biroq "Rohati dil"ning o'ziga xosligi shundaki, unda ichki psixologik dinamika va qalb dramatizmi kuchliroq seziladi.

Tasavvufda ishq ilohiy haqiqatni anglash vositasi sifatida talqin etiladi. Bu masala Sharq falsafasida, xususan, Ibn Arab ta'limotida keng yoritilgan. Unga ko'ra, ishq – mavjudlikning ontologik asosi hisoblanadi.

Huvaydo dostonda ishqni ikki darajada ko'rsatadi:

1. Majoziy ishq – ruhiy kamolotning boshlang'ich bosqichi;

2. Haqiqiy ishq – Haqqa yetishish va "fano" maqomiga erishish jarayoni.

Dostonda yor obrazi ko'p qatlamli ramz bo'lib, zohiran ma'shuqa, botinan esa ilohiy jamol timsolidir. Bu an'ana Ahmad Yassaviy hikmatlarida ham kuzatiladi.

Ishq jarayoni doston syujetida bosqichma-bosqich ochiladi: talab → iztirob → sabr → visol. Bu strukturaviy tizim tasavvufdagi suluk bosqichlariga mos keladi.

"Rohati dil"da asosiy dramatik kuch qalb va nafs o'rtasidagi kurashda mujassam. Nafs dunyoviy mayl va kibrni ifodalaydi, qalb esa ilohiy nur maskani sifatida talqin etiladi.

Tasavvufiy manbalarda nafsni poklash ("tazkiyat un-nafs") asosiy shart sifatida ko'rsatiladi. Huvaydo bu nazariyani badiiy timsollar orqali jonlantiradi:

a) zulmat – nafs timsoli;
b) nur – ma'rifat va qalb pokligi;
d) zanjir – shahvat va g'aflat;
e) safar – ruhiy kamolot yo'li[4].

Shoir qalb rohati nafsni jilovlash orqali yuzaga kelishini ta'kidlaydi. Bu jarayon psixologik jihatdan ichki monologlar orqali beriladi. Lirik "men"ning iztiroblari asarga dramatik ohang bag'ishlaydi.

Tasavvuf falsafasida komil inson tushunchasi markaziy o'rinda turadi. Bu ta'limot nazariy jihatdan Ibn Arab tomonidan asoslangan bo'lsa-da, badiiy talqinini mumtoz adabiyot namoyandalari rivojlantirgan[5].

Huvaydo talqinida komillik quyidagi fazilatlar bilan belgilanadi:

a) sabr va shukr;
b) tavakkul;
d) ishqda sobitlik;
e) kamtarlik va rizo.

[1] Ўзбек адабиёти тарихи. 3-жилд. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 246.
[2] Табибий. Вомиқ ва Азро. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1968. – Б. 193.
[3] Karimov N. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – B. 264.
[4] Haqqul I. Tasavvuf va she'riyat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010. – B. 139.
[5] Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent, 2005.

Komil inson obrazi abstrakt emas, balki ruhiy tajriba mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Bu jihat bilan "Rohati dil" axloqiy-didaktik emas, balki irfoniy-psixologik doston sifatida ajralib turadi.

Doston aruz vaznida yozilgan bo'lib, mumtoz epik kompozitsiya tamoyillariga amal qilingan. Unda quyidagi san'atlar faol qo'llangan:

a) tazod (nur–zulmat, ishq–nafs);

b) talmeh (Qur'on va hadis rivoyatlariga ishoralar);

d) isti'ora va tashbeh;

e) ramziy obrazlar tizimi[1].

Huvaydo tasvirida "may" – ilohiy ishq mastligi, "yor" – Haq jamoli, "sahro" – ruhiy izlanish makoni sifatida keladi. Bu obrazlar mumtoz poetik an'ana bilan uzviy bog'liq.

"Rohati dil" o'zbek tasavvuf adabiyotining an'anaviy yo'nalishiga mansub bo'lsa-da, unda individual ruhiy introspektsiya kuchli. Bu jihat uni didaktik hikmatlardan farqlaydi.

Agar Alisher Navoiy dostonlarida ijtimoiy-falsafiy umumlashtirish ustun bo'lsa, Huvaydoda individual ruhiy tajriba markazga chiqadi. Shu sababli asar XVIII–XIX asrlar tasavvufiy tafakkurining psixologik bosqichini ifodalaydi.

Huvaydoning "Rohati dil" dostoni qo'lyozma nusxalari orqali bizgacha yetib kelgan bo'lib, ayrim manbalarda uning turli kotiblar tomonidan ko'chirilgan variantlari qayd etiladi. O'zbek mumtoz adabiyotidagi ko'plab tasavvufiy asarlar singari, mazkur doston ham og'zaki va yozma an'ananing o'zaro ta'siri ostida shakllangan[2].

Qo'lyozmalarda uchraydigan asosiy farqlar quyidagilardan iborat:

a) baytlar tartibidagi siljishlar;

b) ayrim tasavvufiy istilohlarning sinonimik almashinuvi;

d) Qur'oni karim oyatlariga ishoralarda qisqartirishlar.

Matnshunoslik nuqtai nazaridan bu farqlar asarning mazmuniy yadrosiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi, biroq poetik ohang va ritmik tuzilishga ma'lum darajada ta'sir etadi. Shu bois tanqidiy matn tuzishda variantlarni qiyosiy o'rganish muhimdir.

"Rohati dil"ning g'oyaviy ildizlari tasavvufning klassik manbalariga borib taqaladi. Xususan, undagi "nafsni poklash", "fano" va "baqo" maqomlari haqidagi qarashlar Al-Hazalining axloqiy-falsafiy konsepsiyalari bilan mushtaraklik kasb etadi[3].

Shuningdek, komil inson haqidagi qarashlar Ibn Arab ta'limotiga hamohangdir. Biroq Huvaydo nazariy g'oyalarni to'g'ridan-to'g'ri takrorlamaydi, balki ularni poetik obrazlar tizimiga singdiradi.

Manbaviy qatlamni quyidagi darajalarga ajratish mumkin:

1. Qur'oniy ishoralar (talmeh san'ati orqali);
2. Hadis va rivoyatlar;
3. Tasavvufiy risolalar;
4. Turk mumtoz she'riyati an'analari[4].

XVIII–XIX asrlar o'zbek dostonlari tasavvufiy tafakkur bilan sug'orilgan holda shakllandi. Ular xalq ongida ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash, komil inson idealini targ'ib etish, ilohiy ishq g'oyasini yoyishda muhim o'rin tutdi. Tasavvufiy talqinlar dostonlarning mazmunini chuqurlashtirib, ularni oddiy epik voqeabandlikdan ma'rifiy-badiiy maktab darajasiga ko'tardi.

Shunday qilib, mazkur davr dostonchiligini tasavvufiy qarashlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ular o'zbek mumtoz adabiy tafakkurining ajralmas qismi sifatida milliy ma'naviyat tarixida muhim ahamiyat kasb etadi.

Resume. This article is devoted to the study of mystical interpretations in Uzbek epics of the 18th–19th centuries. The research analyzes how the epics express mystical ideas through their plot, characters, symbols and imagery, the spiritual content of the concepts of love and perfection, as well as the relationship between the pir and the murshid and the elements leading to the ideal of the "perfect person". The article highlights the promotion of the idea of spiritual purification, patience, overcoming the ego and divine love in the minds of the people through epics.

Резюме. Данная статья посвящена изучению мистических интерпретаций в узбекских эпосах XVIII–XIX веков. В исследовании анализируется, как эпосы выражают мистические идеи через сюжет, персонажей, символы и образы, духовное содержание понятий любви и совершенства, а также взаимоотношения между пиром и муршидом и элементы, ведущие к идеалу «совершенного человека». В статье подчеркивается продвижение в сознании людей через эпосы идей духовного очищения, терпения, преодоления эго и божественной любви.

[1] Шомуҳамедов Р. Мумтоз поетика масалалари. – Тошкент, 1985. – Б. 87.
[2] Ўзбек адабиёти тарихи. 3-жилд. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 220.
[3] Haqqulov I. Tasavvuf va o'zbek mumtoz adabiyoti // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2005. №3. – B. 15–22.
[4] Шомуҳамедов Р. Мумтоз поетика масалалари. – Тошкент, 1985. – Б. 80.